



EXPERIENCES IN ENSURING FOOD SECURITY (THE CASE OF UZBEKISTAN)

U.K. Khudoykulov

Candidate of Technical Sciences, Associate Professor

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: food security, agriculture, socio-economic and political stability, fruits, grapes, vegetables, melons, cereals, UN, world, Oliy Majlis.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract:

Food in Uzbekistan in this article - ensuring food security since the first years of our republic's independence, in order to ensure the country's food security, a strategy has been implemented aimed at revising and improving the structure of crops based on fundamental agrarian reforms, as well as ensuring food security based on access to safe food necessary for people to be active and healthy lifestyle. the state in which a sufficient amount can be achieved, including the implementation of a program aimed at consolidating the independence of grain in our country, has acquired great socio-economic and political importance.

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH BORASIDAGI TAJRIBALAR (O'ZBEKISTON MISOLIDA)

U.K. Xudoyqulov

t.f.n., dotsent

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zl: Oziq- ovqat xavfsizligi qishloq xujaligi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlik, mevalar uzum, sabzavot maxsulotlari, poliz ekinlari, don maxsulotlari, BMT, dunyo, Oliy Majli.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada O'zbekistonda oziq- ovqat xavfsizligini taminlash Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida tub agrar islohotlar asosida qishloq xujaligi ekinlari strukturasi qayta kurib chiqish va takomillashtirishga yunaltirilgan strategiya

amalga oshirilishi va oziq-ovqat xavfsizligi kishilarning faol va sog'lom hayot kechirishlari uchun zarur bo'lgan xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlariga jismoniy va iqtisodiy jihatidan har bir davrida yetarli miqdorda erishish mumkin bo'lgan holati shu jumladan, mamlakatimizda don mustaqilligini qulga kiritishga qaratilgan dasturning amalga oshirilishi katta ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyat kasb etilishi shu bilan birgalikda halqaro tashkilotlar tajrabalarini ilmiy jixatidan taxlil qilingan.

ОПЫТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА)

У.К. Худойкулов

Кандидат технических наук, доцент

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые	слова:	Аннотация:
Продовольственная безопасность сельское хозяйство, социально - экономическая и политическая стабильность, фрукты виноград, овощи, бахчевые культуры, зерновые, ООН, мир, Олий Мажлис.		Еда в Узбекистане в этой статье- обеспечение продовольственной безопасности с первых лет обретения нашей республикой независимости в целях обеспечения продовольственной безопасности страны была реализована стратегия, направленная на пересмотр и совершенствование структуры сельскохозяйственных культур на основе коренных аграрных реформ, а также обеспечение продовольственной безопасности на основе доступа к безопасным продуктам питания, необходимым людям для активного и здорового образа жизни. состояние, при котором может быть достигнуто достаточное количество, в том числе, реализация программы, направленной на закрепление независимости зерна в нашей стране, приобрела большую социально-экономическую и политическую значимость.

Kirish. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash tizimi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, tabiiy-iqtisodiy salohiyat, mamlakat va alohida mintaqalar aholisining to'lov qobiliyati, milliy bozorning importga qaramlik darajasi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va yer resurlaridan oqilona foydalanish, agrosanoat majmuasining rivojlanishi kabi bevosita ta'sir etuvchi jarayonlar

bilan uzviy bog‘liq. Shu jihatdan, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash milliy siyosatda muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lish bilan birga iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik hamda davlat mustaqilligining asosiy shartlaridan biridir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta‘kidlaganlaridek, “Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha o‘tkazilayotgan xalqaro ekspert tadqiqotlari jahonda va uning ayrim mintaqalarida ushbu muammo bilan bog‘liq murakkab vaziyat yuzaga kelayotgani jiddiy tashvish va xavotir uyg‘otayotganini ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda mazkur muammo jahon hamjamiyati uchun o‘ta dolzarb va jiddiy tahdidlar qatoriga kiritilmoqda” [1].

Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash bir tomondan, agrosanoat ishlab chiqarishini ikkinchi tomondan, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi va aholi daromadlarini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun muammolar yechimini ishlab chiqishda bozor mexanizmlari bilan birgalikda davlat nazoratini ham e‘tiborga olish zarur. Shu nuqtai-nazardan, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash tizimini shakllantirishning usul va uslubiyotini va turli iyerarxik darajalarda ta‘sir etuvchi omillarni tahlil qilish, milliy va mintaqaviy jihatdan baholash mezonlarini ishlab chiqish bugungi kunning muhim vazifasidir. Mustaqillik yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar keng miqyosdagi islohotlarning amalga oshirilishi tufayli, jamiyatning tubdan o‘zgarishi, yangi ijtimoiy tuzumning shakllanishiga imkoniyat yaratdi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash O‘zbekistonning mustaqilligi, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta‘minlashning garovi xisoblanadi. Kishilik jamiyati taraqqiyotining so‘nggi 30 yillik tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 1990-2020 yillar davomida dunyo bo‘yicha o‘ta qashshoqlik darajasidagi aholi soni 2,3 marta, rivojlanayotgan mamlakatlarda to‘yib ovqatlanmaydigan aholi qatlami 2 martadan ortiqqa kamaygan yoki ijtimoiy-iqtisodiy hayotning qator jabhalarida ko‘plab ijobiy rivojlanish natijalarini kuzatish mumkin. Lekin garchi bu kabi natijalar qanchalik ijobiy tavsifga ega bo‘lmasin, jahon aholisining barqaror oziq-ovqat ta‘minoti to‘laqonli o‘z yechimini topa olgani yo‘q.

Tadqiqotning asosiy natijalari. Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash O‘zbekiston mustaqilligini hamda mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta‘minlashning garovi hisoblanadi. Sir emas, bugun Yer yuzida iqlim o‘zgarishi bois yuz berayotgan tabiiy ofatlar, yerni sug‘orish uchun suv tanqisligi, qurg‘oqchilik, davlatlar hamda halqlar o‘rtasida nizo va urushlarning kuchayshi kabi holatlar oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni qiyinlashtiryapti. Oqibatda dunyo oziq-ovqat bozorlarida narx-navo ko‘tarilishi kuzatilayotir. Albatta, bu holat bizga ham o‘zining salbiy ta‘siri ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sohalaridagi salohiyati, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha yangi yondashuvlari vujudga kelmoqda.

Ayniqsa, O'zbekistonda urug'chilik, bog'dorchilik, chorvachilik, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishi ta'komillashib bormoqda .Bu masalaga O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2014 yil 5-6 iyunda Toshkent shahrida o'tkazilgan "O'zbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zaxiralari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ochilish marosimidagi nutqlarida alohida e'tibor qaratilib, quyidagi bir qator ijtimoiy-iqtisodiy jihatlar ko'rsatib o'tilgan.

Birinchidan, BMTning Oziq-ovqat va qishl oq xo'jaligi tashkiloti hamda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda dunyoda 840 milliondan ortiq kishi, ya'ni deyarli har sakkiz odamning biri to'yib ovqatlanmayapti, sayyoramiz aholisining 30 foizidan ziyodi to'laqonli ravishda ovqatlanmaslik, eng asosiy mikroelement va vitaminlar yetishmasligi muammosini boshidan kechirmoqda. Ana shunday sabablar tufayli 160 milliondan ortiq bola bo'yining o'sishi, jismoniy va intellektual rivojlanishiga doir kamchiliklardan aziyat chekmoqda." Bu oziq-ovqat xavfsizligi va uni ta'minlashning xalqaro e'tirofdagi muhim tamoyillari jismoniy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan oziq-ovqat mahsulotlarini olish imkoniyatlari yaratib berilmayotganligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, ma'ruzadagi yana bir e'tiborli jihat "oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi aholi soni va ehtiyojlarining o'sishidan ortda qolayotganligi" yoki "Yer yuzi aholisining tez ko'payib borayotgani bilan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish imkoniyatlari cheklangani o'rtasidagi tafovut oziq-ovqat dasturini hal etish masalasi yildan-yilga keskinlashib borayotganining asosiy sababi ekanligi"dir. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti meyorlariga ko'ra insonning normal hayot kechirishi uchun yiliga 1 tonna g'alla iste'moli talab etilishi sharoitida, amaldagi o'rtacha iste'mol ko'rsatkichi 400 kg.ni ham tashkil etmayapti. Bu holat oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish masalasi yaqin istiqbolda ham global darajadagi eng muhim muammolardan biri sifatida saqlanib qolinishi. Uchinchidan, ma'ruzada ta'kidlanganidek, "2008-yilda boshlangan inqiroz bilan bog'liq voqealar barchamizning esimizda, o'shanda jahon miqyosida narx-navo ko'tarilib, oziq-ovqat ta'minotida uzilishlar yuzaga kelgani Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining ko'plab davlatlarida norozilik va ommaviy tartibsizliklarga sabab bo'lgan, butun dunyoda barqarorlikka nisbatan jiddiy xavf-xatarga aylangan edi." [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasida «Bozor iqtisodiyoti sharoitida teng va xalol rakobat muxitini yaratish maksadida «Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada samarali ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmon loyihasi ishlab chiqilib, keng jamoatchilik muxokamasiga quyildi» deb ta'kidlagan [3].

Bu esa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning dolzarb ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Jaxon va mamlakatimizda axoli sonining kupayib borayotgani, urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi, ekologik xolatning yomonlashuvi, yerlarning chullanishi xolatining kuchayishi, suv zaxiralarining kamayib borishi va tanqisligining kuchayishi, qishloq xujaligida ekin maydonlarining qisqarib borishi, mavjud sug'oriladigan yerlardan yetarli darajada samarali foydalanmaslik tufayli oziq-ovqat maxsulotlarini ishlab chiqarish va axolining extiyojlarini qondirish imkoniyatlarini kengaytirish masalasini yildan-yilga keskin qilib quymokda. Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida tub agrar isloxotlar asosida qishloq xujaligi ekinlari strukturasini qayta kurib chiqish va takomillashtirishga yunaltirilgan strategiya amalga oshirildi. Shu jumladan, mamlakatimizda don mustaqilligini qulga kiritishga qaratilgan dasturning amalga oshirilishi katta ijtimoiy-iktisodiy va siyosiy ahamiyat kasb etdi. Agar 1990 yilda ekin maydonlarining yarmidan kuprog'ini texnik ekinlar, shu jumladan, paxta maydonlari tashkil etgan bulsa, 2016 yilga kelib, ularning maydonlari 35,1% gacha qisqartirildi. Shu bilan bir vaqtda don ekinlari maydonlarining ulushi umumiy ekin maydonlarining 24%dan 45,2%gacha oshirildi. Buning natijasida mustaqillik yillarida mamlakatimizda don mustaqilligi kulga kiritildi, ozuqabop qishloq xujaligi maxsulotlari ishlab chiqarish keskin usdi. Kartoshka yetishtirish 2016 yilda 1991 yilga nisbatan 8,3 barobarga, mevalar salkam 6 barobarga, uzum 3,6 barobarga, sabzavot maxsulotlari 3,3 barobardan ziyodga, poliz ekinlari 2,2 barobarga, don maxsulotlari yetishtirish esa 4,3 barobardan ziyodga kupaydi. Shu bilan birga paxta xom ashyosi ishlab chiqarish xajmi 36,3%ga kamaydi[4].

O'zbekiston hukumati tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) texnik ko'magida tashkil etildi va dunyoning 32 davlatidan 620 dan ortiq ishtirokchini birlashtirdi, Davlat rahbari O'zbekiston «eng zarur mahsulotlar savdosi va transportirovkasida», shuningdek, oziq-ovqat yuklari harakatini tartibga soladigan qoidalarni soddalashtirish ekanini ta'kidladi. FAO bosh direktori Syuy Dunyuy o'z nutqida Markaziy Osiyo iqlim o'zgarishi muammolariga ayniqsa zaif va bu global oziq-ovqat savatiga ta'sir ko'rsatayotganini aytdi.«Biz mintaqaga yordam berishimiz kerak. Texnologiyalar, investitsiyalar va iqlim o'zgarishi muammolarini hal qilish yo'llari bilan», — deydi xalqaro tashkilot rahbari. Aziz Voitovning aytishicha, O'zbekistonda qishloq oziq-ovqat sohasini o'zgartirish jarayoni ketmoqda. Maqsadga erishish maqsadida mamlakatda qishloq xo'jaligi salohiyatini rivojlantirish, aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun dunyoning yetakchi olimlarini jalb etish rejalashtirilgan. «Dunyo oziq-ovqatning yuqori sifati va ko'proq mavjudligini ta'minlash uchun yangi yechimlar va innovatsiyalarni talab qilmoqda»,

Oziq -ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi barcha mamlakatlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti" (FAO) tomonidan ta'kidlanishicha, oziq-ovqat xavfsizligiga erishish, bu barcha insonlarning hohlagan vaqtda jismoniy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatidan yetarli miqdorda xavfsiz oziqaviy mahsulotlar bilan ta'minlanishni anglatadi. Oziq-ovqat xavfsizligi kishilarning faol va sog'lom hayot kechirishlari uchun zarur bo'lgan xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlariga jismoniy va iqtisodiy jihatidan har bir davrida yetarli miqdorda erishish mumkin bo'lgan holat deb ta'riflanadi [5].

Dunyo tajribasidan kelib chiqqan holda Prezidentning Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom ovqatlanishni ta'minlashning 2030-yilgacha mo'ljallangan strategiyasi tasdiqlandi. Uning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

Oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom ovqatlanishni ta'minlash hamda aholining barcha qatlamlari sog'lom va faol hayot kechirishi uchun tabiiy, moliyaviy va moddiy resurslardan foydalanishning samarali boshqaruv tizimlarini joriy qilish;

Erkin bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan mexanizmlar orqali strategik ahamiyatga ega qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari hamda ularning xomashyo zaxiralarini yaratish;

Oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom ovqatlanishni ta'minlash jarayonida tabiiy va texnogen ofatlar, global siyosiy va iqtisodiy inqirozlar, pandemiya, harbiy amaliyot va boshqa hodisalarning salbiy ta'siri oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va boshqarish, shuningdek, xabardor qilish va monitoring platformasini yaratish maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun ijtimoiy himoya milliy tizimlarini takomillashtirish va ularning barqarorligini ta'minlash;

2024-yil 1-martga qadar oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash, tashish infratuzilmasini zamon talablari asosida rivojlantirish va mavjudlarini modernizatsiya qilish zarur.

Jamoatchilikni keng jalb qilgan holda oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizlik ko'rsatkichlarini nazorat qilish, sog'lom ovqatlanish tamoyillari va ularga rioya qilish amaliyotlarini keng targ'ib qilish;

2025-yil yakuniga qadar oziq-ovqat xavfsizligi va iste'moli sohasida salohiyatni barqaror rivojlantirish, xavf-xatarlarni aniqlash, baholash, boshqarish va monitoringini yuritish hamda xavf-xatarlar to'g'risida erta xabardor qilishni tashkil yetish maqsadida yaxlit idoralararo Milliy axborot platformasini ishlab chiqsin;

2025-yil 1 martga qadar qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari hamda ularning bozordagi narx-navolari to'g'risidagi doimiy, ishonchli va aniq ma'lumotlar bilan ta'minlaydigan «Elektron agrosanoat bozori» axborot tizimini ishga tushirish lozim [6].

1990-2002 yillarda oziq-ovqat xavfsizligini nafaqat global darajada, balki milliy, mintaqaviy va shaxsiy darajalarda ham ko‘rib chiqilishi va hal etilishi zarurati 1996 va 2002 yillarda o‘tkazilgan FAOning umumjahon sammitini o‘z ichiga oladi. 1996 yildagi sammitda butunjahon oziq-ovqat xavfsizligining Rim deklaratsiyasi qabul qilindi. Rim deklaratsiyasida o‘sha davrning ilmiy rivojlanishini inobatga olgan holda oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasiga yangi ta’rif berildi. Bunda “oziq-ovqat xavfsizligi barcha odamlar o‘z oziqlanish ehtiyojlari va shaxsiy hohishlariga binoan hamda faol va sog‘lom hayotni ta’minlash uchun yetarli miqdorda xavfsiz va to‘yimli oziq-ovqat mahsulotlariga jismoniy va iqtisodiy jihatdan ega bo‘la olishi” belgilandi[7].

Birinchi marta oziq-ovqat yetishmasligining sabablari bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy, tabiiy va iqlimiy jihatlarga bog‘liq boshqa muammolar bilanbirga qashshoqlik muammosi ham ko‘tarildi. Bundan tashqari, oziq-ovqat xavfsizligi muammosini hal qilish butun dunyo hamjamiyatining yagona maqsadga birlashishi, ya’ni sayyoradagi har bir insonni oziq-ovqat bilan ta’minlash kompleks yondashuvni va muvofiqlashtirilgan harakatlarni talab etadi, degan xulosaga kelindi. 2015-yilda dunyoda och odamlarning sonini 2 martagacha qisqartirish bo‘yicha majburiyat qabul qilindi. 2002 yilgi jahon oziq-ovqat sammitida 179 davlatning (73 tasi ukumat rahbarlari) barcha ishtirokchilari 1996 yilgi Rim deklaratsiyasi doirasida o‘z majburiyatlarini bajarishga sodiqligini yana bir bor tasdiqladilar, shu jumladan, 2015 yilgacha dunyodagi och odamlarning sonini qisqartirish barcha darajalarda oziq-ovqat xavfsizligiga erishishning poydevori sifatida ham ta’kidlandi. Bunda oziq-ovqat xavfsizligi ta’rifiga jismoniy va iqtisodiy imkoniyatdan tashqari ijtimoiy imkoniyat tushunchasi ham qo‘shildi: “barcha odamlar o‘z oziqlanish ehtiyojlari va shaxsiy hohishlariga binoan hamda faol va sog‘lom hayotni ta’minlash uchun yetarli miqdorda xavfsiz va to‘yimli oziqovqat mahsulotlariga ega bo‘lishi uchun jismoniy, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlari mavjudligidir” [8].

Shuningdek, butunjahon oziq-ovqat sammiti deklaratsiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha harakat rejasi qabul qilindi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha majburiyatlarni bajarish va amalga oshirish uchun doimiy ravishda monitoring faoliyatini yo‘lga qo‘yish zarurligi belgilandi. Ushbu yondashuv FAO va boshqa xalqaro tashkilotlarning ochiq ma’lumotlar bazasi shakllanishi va dunyo miqyosida oziq-ovqat xavfsizligi nuqtai nazaridan ishonchli ma’lumotlarni olish imkonini berdi. (2009 yildan hozirgi davrgacha) 1996 va 2001 yilgi Rim deklaratsiyasi qoida va majburiyatlarni bajarishga qaratilgan bo‘lib, oziq-ovqat xavfsizligi masalalarini boshqarishning yangicha shakli namoyon bo‘ldi. Bunga 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sabab bo‘ldi va 2009 yil Rimda umumjahon

sammiti o'tkazildi. Ushbu sammitda 50 ta davlat rahbarlari va 180 dan ortiq vazirlar ishtirok etdi. Oziq-ovqat xavfsizligini ikki yoqlama yondashuv asosida ko'rib chiqilishi joriy etildi:

1) zudlik bilan ko'riladigan choralar; 2) o'rta va uzoq muddatli rejalashtirishni qo'shib olib borish. Ushbu sammit deklaratsiyasida oziq-ovqat xavfsizligiga yangicha ta'rif berildi. Oziq-ovqat xavfsizligi barcha insonlar faol va sog'lom hayot kechirish uchun o'zlarining zarur diyeta ehtiyojlari va didlariga mos xavfsiz va qimmatli oziq-ovqatga yetarli miqdorda har doim ega bo'lishning jismoniy, ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlaridir [9].

Bunda oziq-ovqat xavfsizligi konsepsiyasi jiddiy o'zgarishlarga uchramadi va faqatgina "qimmatli oziq-ovqat" jihatlari bilan to'ldirildi. Bundan ko'rinadiki, oziq-ovqat xavfsizligi muammosining mutanosib darajada hal etilmay qolinayotganligi global ijtimoiy barqarorlikka tahdidning o'ziga xos unsuri, ijtimoiy-iqtisodiy makonda esa siyosiy omil ta'sirini kuchaytiruvchi "katalizator" tavsifiga ega bo'lmoqda. Buni shu bugungi kunda Yevropa Ittifoqi amaliyotida o'ziga xos dolzarb muammo – qochoqlar va tartibsiz migratsiya oqimi misolida ham yaqqol kuzatish mumkin. Albatta yuqorida keltirilgan qator statistik ma'lumotlar va tahliliy mulohazalarning nechog'lik bizning hayotimizga daxldorligi masalasi e'tiborimizni tortishi tabiiy. Shu jihatdan ham, dunyoning qaysi burchagida, ijtimoiy hayotning qaysi jabhasida bo'lmasin, yuzaga kelgan yoki o'z yechimini topmayotgan muammolardan O'zbekiston ham chetda qola olmaydi. Shu nuqtai-nazardan ham respublikada 1997 yil 30 avgustda qabul qilingan va 2017 yil 18 aprelda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi qonuni, ayniqsa 2015 yil 29 avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2015-2020 yillar davrida O'zbekiston Respublikasi aholisining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash Konsepsiyasini va chora-tadbirlar kompleksini tasdiqlash to'g'risida" qarori mazkur masalaga prinsipial milliy yondashuvning mohiyatini ko'rsatib bera oladi.

2015-2020 yillar davrida O'zbekiston Respublikasi aholisining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash konsepsiyasida ta'kidlab o'tilganidek.

Birinchidan, aholi tomonidan sabzavotlar va mevalar iste'mol qilinishini 15 foizga ko'paytirish;

Ikkinchidan, tarkibida tuz ko'p bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishni 15 foizga qisqartirish.

Uchunchidan, ovqatlanish ratsioni sog'lom ovqatlanish prinsiplariga mos bo'lgan homilador ayollar, chaqaloqlar va besh yoshgacha bolalar ulushini 10 foizga ko'paytirish;

Turtinchidan, tamaki iste'mol qilishni va alkogolni zararli iste'mol qilishni 10 foizga qisqartirish;

Beshinchidan, sogʻlom, xavfsiz va sifatli qishloq xoʻjaligi meva-sabzavot va goʻshtsut mahsulotlarini mamlakatimizda yetishtirishni kengaytirish;

Oltinchidan, tarkibida shakar, tuz, toʻyintirilgan va transyogʻli kislotalar kam boʻlgan mahsulotlarni yetishtirish, qayta ishlash va realizatsiya qilish hajmini koʻpaytirish;

Yettinchidan, vitaminlar va zarur minerallar bilan boyitilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish ulushini koʻpaytirish imkonini beradi. [10].

Xulosa. Xulosa qilib shuni alohida qayd etish mumkinki, insoniyat oʻz tarixiy taraqqiyoti davomida ilk bor global xavfsizlik tushunchasini yoki muammosini ijtimoiy hayotning barcha yoʻnalishlarida his qilmoqda. Barcha mamlakatlarning qishloq xoʻjaligini ekologik jihatdan eng xavfsiz, bioxilma-xillikni qoʻllab-quvvatlaydigan usulda, suv resurslaridan oqilona foydalangan holda rivojlantirish, aholi, ayniqsa bolalar va oʻsmirlarning sogʻlom ovqatlanishiga koʻmaklashish, maktabda ovqatlanish kompleks dasturlarini joriy qilish, ayollarning agrooziq-ovqat tizimlari transformatsiyasidagi ulushini oshirish uchun qishloq joylaridagi ayollar huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish, davlat miqyosida kichik va oilaviy xoʻjaliklarni qoʻllab-quvvatlash, ularning ishlab chiqarish, tabiiy va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish kabi maqsadlari qayd etildi.

Xalqaro oziq-ovqat xavfsizligi, Oʻzbekistonda, qolaversa, mintaqamiz va jahonning katta qismida oziq-ovqat xavfsizligi, «nol ochlik» maqsadlariga erishish, aholiga sifatli va arzon oziq-ovqat mahsulotlarini uzluksiz yetkazishdek ulugʻvor maqsadlarga erishilishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Karimov I.A. Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining “Oʻzbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zaxiralari” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi //Xalq soʻzi. 2014 yil, 7 iyun. 2-b.

2.Karimov I.A. Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining “Oʻzbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zaxiralari” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi //Xalq soʻzi. 2014 yil, 7 iyun. - № 110 (6040)

3.Mirziyoyev Sh.M. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi. // «Xalk, suzi», 2017 yil 23 dekabr

4.Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiya va kursatkichlari xamda 2011-2015 yillarga muljallangan prognozlar: Statistik tuplam. -T.: «Oʻzbekiston», 2011. -85-86-b.

5.Oziq-ovqat xavfsizligi boʻyicha xalqaro konferensiya Samarqand. 07.09.2023 y.

6.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentli 2024 yildagi maʼlumotlari asosida.

7.<http://www.fao.org/docrep/003/w3613e/w3613e00.HTM>

8.http://www.fao.org/docrep/MEETING/005/Y7461e.HTM#P26_1860

9.<ftp://ftp.fao.org/docrep/fao/Meeting/018/k6050r.pdf>

10.[http://www.lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=2739753&ONDATE=11.04.](http://www.lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=2739753&ONDATE=11.04.2016%200)

2016%200